

SHOLI NAVINI O‘SIMLIK BO‘YIGA VA ULARNING VEGETATSIYA DAVRINI DAVOMIYLIGIGA URUG‘EKISH ME‘YORLARINI TA‘SIRI

Kodirov Axmadjon Abduraufovich, Ph.D

TAIRI, q.x.f.f.d., katta o‘qituvchi

Eshboyev Nurbek Xolmumin o‘g‘li

TAIRI, magistranti

Annatatsiya: Tadqiqotlarimizda turli urug‘ ekish va oziqlantirish me‘yorlarida sholi navlarini yetishtirishda o‘simlik bo‘yini shakllanishi kuzatildi. Bunda o‘simlik bo‘yi Alanga navida 3 mln. dona/ga urug‘ ekish me‘yorida 70,4 sm dan 74,6 smgacha, 4 mln. dona/ga urug‘ ekish me‘yorida 70,7 sm dan 75,0 santimetrgacha, 5 mln. dona/ga urug‘ ekish me‘yorida 71,0 sm dan 75,5 santimetrgacha, 6 mln. dona/ga urug‘ ekish me‘yorida 71,2 dan 75,6 santimetrgacha; bo‘lganligi aniqlandi.

Калит сўзлар: Sholining Alaga navi, ekish me‘yori, o‘simlik bo‘yi, fazalar, tuplanish, ro‘vklash, to‘liq pishish, sm, mln.dona, Kun, variant.

Кириш. O‘simlik tanasida kechadigan fiziologik va biokimyoviy jarayonlar, ildiz orqali va havodan oziqlanish, energiya bilan ta‘minlanish darajasi o‘simliklarni o‘shishini belgilaydi. Shu bilan birga o‘simlikning o‘shishiga meteorologik, agrotexnologik va boshqa bir necha omillarning ta‘siri ham katta [37; S.21-23]. Ushbu omillarning sholi o‘simligini o‘shishiga bog‘lab, turli davrlarda bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Tadqiqotlarimizda turli urug‘ ekish va oziqlantirish me‘yorlarida sholi navlarini yetishtirishda o‘simlik bo‘yini shakllanishi kuzatildi (3.3.1-jadval). Bunda o‘simlik bo‘yi Alanga navida 3 mln. dona/ga urug‘ ekish me‘yorida 70,4 sm dan 74,6 smgacha, 4 mln. dona/ga urug‘ ekish me‘yorida 70,7 sm dan 75,0 santimetrgacha, 5 mln. dona/ga urug‘ ekish me‘yorida 71,0 sm dan 75,5 santimetrgacha, 6 mln. dona/ga urug‘ ekish me‘yorida 71,2 dan 75,6 santimetrgacha; bo‘lganligi aniqlandi.

3.3.1-jadval Turli urug‘ ekish me‘yorlariga sholi navlari o‘simligi bo‘yining o‘shishi, sm

Ekish me‘yori, mln. dona/ga	Rivojlanish fazalari		
	Tup-lanish	Ro‘vak-lash	To‘liq pishish
	Alanga st		
3	70,4	93,4	118,1
	72,8	96,6	123,1
	74,6	100,0	127,8
4	70,7	93,9	119,0
	72,6	96,9	124,5
	75,0	100,6	128,8
5	71,0	94,7	120,3
	73,3	98,0	125,6
	75,5	101,4	130,0
6	71,2	94,8	121,8
	73,1	98,5	126,7
	75,6	102,3	131,1

Ko‘chat zichligi yuqori bo‘lganda sholi ko‘chatlari siqilib quyosh nuri uchun kurash kuchayadi.

O'simlikning to'qimalaridagi xujayralar uzayadi, o'simlikning yon shohlari kam rivojlanib yorug'likka intilib o'sadi. Shu sababli o'simlik bo'yi balandroq bo'ladi. Shunday qilib, gektariga 3,0 mln. dan 6 mln donaga yetkazilganda, o'simlik bo'yi ushbu navida 7 sm ga, o'simliklar bo'yini mos ravishda 2,3; 2,3 va 1,8 sm ga oshirdi (3.3.1-jadval).

O'simlikning o'sishi va rivojlanishi uchun sharoit qanchalik qulay bo'lsa, barcha hayotiy bosqichlarini biologiyasiga mos holatda o'tkazadi. Aksincha, noqulay sharoitlar yuzaga kelganda o'simlikning har bir rivojlanish bosqichlari tezroq nihoyasiga yetadi [38; B.99-106].

Vegetatsiya davrining davomiyligi nafaqat azotli o'g'itlar me'yorlari, balki urug' ekish me'yorlariga ham bog'liq bo'ldi. Bunda urug'larni ekish me'yori oshgani sayin, vegetatsiya davri qisqardi. Gektariga 3 mln. dona urug' ekilgan variantda vegetatsiya davri davomiyligi Alanga navida 115 kun, ni tashkil etdi. Urug' ekish me'yorini gektariga 1 mln. donaga oshirish sholi navlarini vegetatsiya davri davomiyligini 1 kunga qisqarishiga olib keldi. Biz bu holatda, 3 mln. dona urug' ekilgan variantdagi sholi o'simligini ekish me'yori yuqori bo'lgan variantlarga nisbatan ko'proq tuplaganligi (ayniqsa azot o'g'iti yuqori me'yorlarda) bilan bog'liq deb hisoblaymiz.

O'simlikni bo'yicha o'sishida azotli o'g'itlar me'yoringa ta'siri 67,7-77,8% bo'lgan bo'lsa, urug' ekish me'yoringa ta'siri 21,3- 30,4 foizni tashkil etdi. Urug' ekish me'yorini gektariga 1 mln. donaga oshirilganda sholi navlarining vegetatsiya davri davomiyligi 1 kunga qisqardi, yuqori me'yorda azotli o'g'itlar bilan oziqlantirilganda vegetatsiya davri 4-5 kunga uzaydi.

O'simlikning o'sishi va rivojlanishi uchun sharoit qanchalik qulay bo'lsa, barcha hayotiy bosqichlarini biologiyasiga mos holatda o'tkazadi. Aksincha, noqulay sharoitlar yuzaga kelganda o'simlikning har bir rivojlanish bosqichlari tezroq nihoyasiga yetadi [38; B.99-106].

Sholi navlarida vegetatsiya davri davomiyligi o'rganilganda Alanga navida 117-124 kuni tashkil etdi (3.3.2-jadval).

3.3.2-jadval Urug' ekish me'yorlariga ko'ra sholi navlarini vegetatsiya davri davomiyligi, kun

Nav	Ekish me'yori, mln. dona/ga			
	3	4	5	6
Alanga	117	116	115	116
	116	116	117	118
	115	117	118	120
	114	115	119	121
	115	116	119	120
	116	117	118	121
	117	118	120	123
	118	119	120	122
	118	119	120	124
	117	120	121	123

Chunki o'rim-yig'im davri noqulay ob-havo sharoiti boshlanishiga to'g'ri kelishi mumkin, bu esa sholi hosiliga va sifatiga salbiy ta'sir qiladi.

Vegetatsiya davrining davomiyligi urug' ekish me'yorlariga ham bog'liq bo'ldi. Bunda urug'larni ekish me'yori oshgani sayin, vegetatsiya davri qisqardi. Gektariga 3 mln. dona urug' ekilgan variantda vegetatsiya davri davomiyligi Urug' ekish me'yorini gektariga 1 mln. donaga oshirish sholi navlarini vegetatsiya davri davomiyligini 1 kunga qisqarishiga olib keldi. Biz bu holatda, 3 mln. dona urug' ekilgan variantdagi sholi o'simligini ekish me'yori yuqori bo'lgan variantlarga nisbatan ko'proq tuplaganligi bilan bog'liq deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 12-dekabrdaagi “Sholichilikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida” gi №986-sonli Qarori.
2. GOST ISO 6646-2013 Ris. Определение максимально возможного выхода шелушенного и шлифованного риса. 12 s.
3. GOST 10987-76. “Зерно. Метода определения стекловидности” 4 s.
4. Dospexov B.A. Metodika polevogo opyta. // Moskva: Kolos. 1985. S. 350-423
5. Nurmatov Sh., Mirzajonov Q. va boshqalar. Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari. // Toshkent-2007. B.8-51.
6. Ochilov E., Qashqarov N. O‘simlikshunoslikda ilmiy tadqiqot asoslari. // Namangan. 2007. B.3-8.
7. Полоий В. Пример методологии экономической оценки вариантов опыта в рисоводстве./ Вниирис. Краснодар. 1976. 93 с.
8. Sattarov M.A. va boshqalar “O‘zbekistonda sholidan yuqori hosil olish bo‘yicha tavsiyanoma” // Toshkent. 2019. 24 b.
9. Saimnazarov Yu.B va boshqalar. Sholi ekish mavsumida bajariladigan ishlar bo‘yicha tavsiyanoma. // Toshkent. 2009. B.3-7.
10. Teshayev Sh.J., Aripov A.O, va boshqalar-“Qishloq xo‘jaligi ekinlarini parvarishlash va mahsulot yetishtirish bo‘yicha namunaviy texnologik kartalar 2016-2020 yillar uchun” // Toshkent 2016, II – qism. B. 84-87.